

**“YADA TOSHLARI” AFSONAMI YOKI HAQIQAT?****Ochilov Yigitali Abduqaxorovich**

Sirdaryo viloyat Guliston shahar 1-umumta'lim maktabi

oliy toifali tarix fani o'qituvchisi:

**Annotatsiya**

Insoniyat yaralibdiki, tabiiy hodisalarni tushunishga, tabiatga ta'sir o'tkazishga yoki uni o'ziga bo'ysindirishga intilib keladi. Bugun biz biroz bo'lsada yoritishga harakat qilgan mavzu yada toshlari haqidagi ma'lumotlar ham aynan tabiat hodisalari bilan bog'liq bo'lib, uning ildizi ancha qadimiy davrlarga borib taqaladi.

**Kalit so'zlar:** yada toshi, tabiat bilan uyg'unlik, turkiy xalqlar

Ilk diniy e'tiqodlarning vujudga kelishi ham insonni tabiat hodisalarini chuqurroq anglashga intilishi natijasida paydo bo'ldi. Yada toshlaridan faqatgina turkiy xalqlar foydalanganli to'g'risida ma'lumotlar talaygina. Yada (hozirgi tildagi ko'rinishi jodu) XX asrgacha yomg'ir chaqirish uchun ishlatilgan. Buning uchun sigir, ot yoki to'ng'iz oshqozonidan olingan toshga afsun o'qiladi.

Olyot (oyrat qabilasining kata bir urug'i nomi) qabilalari esa bu toshni “zadin chuluu” deyishgan. Uni oqqush oshqozonidan yoki taymen (losos balig'i turi) bosh qismidan olishgan va ular ham bu toshlardan yomg'ir chaqirishda foydalanishgan. Xuddi shunday marosim oltoy, buryat, tuva va yoqut xalqlarida ham mavjud.<sup>1</sup>

Qadimgi turklarning diniy e'tiqodi qam yoki shaman dini asosan tabiat bilan bog'liq bo'lib, bosh shaman ya'ni qamlar qor va yomg'ir yog'dirish sehrini ham egallashgan. Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'otit-turk» kitobida bu voqyeaga shohid bo'lganligini eslaydi: «Bir tosh (yat-yada) bilan kohinlik qilinadi, shamol va yomg'ir chaqiriladi. Bu hol turklarda juda keng tarqalgan bo'lib, men ham uning shohidi bo'ldim. Yozda katta bir yong'in chiqqan edi. Uni o'chirish maqsadida Ollohning izni bilan qor chaqirildi va u yog'ib, yong'in so'ndi». Qamlar yada toshlari sehri bilan yomg'ir yoki qor yog'dirishi to'g'risida ko'plab rivoyat, afsona, tarixchi olimlarning esa hayotiy kuzatishlari bitilgan xotiralar yetib kelgan.

Yada toshining paydo bo'lishi to'g'risida ma'lumot Mirzo Ulug'bekning “To'rt ulus tarixi” asarida uchraydi. Unda “... Yofas ibn Nuh alayhissalom Judi tog'idan nuzul etigach, Hazrati haq Jalli alo amri bilan Mashriq tomon jo'nadi. O'z padari buzrukvoridan ruxsat olish hangomida, undan duo o'rgatishlarini so'radi. To Hazrati Qodir alo alatloqdan yomg'ir

<sup>1</sup> Эрдэнэболд Лхагвасүрэн, Традиционные верования ойрат-монголов (конец XIX – начало XX в), 19-б

yog'ishni so'ragay. Nuh alayhissalom unga ismi a'zamni o'rgatdi. U ismi a'zamni bir toshga naqsh qilib Yofas alayhissalomga topshirdi. Yofas alayhissalom ul ismi a'zam barakoti sirlarin o'sha Hazrati boti taoloning buyuk nomi naqsh qilingan toshni har choq yomg'ir yog'ishini istaganlarida keltirar edilar. Bugungi kunda ham turklar orasida yomg'ir yog'diruvchi tosh mavjud. Ul toshni Jada toshi ,Yada toshi deb atayladilar. U arabchasiga Hajarul-mutur deyiladi. Hozir unday toshlarni hayvon qornidan oladilar. Ba'zi hayvonlarning oshqozonidan, ba'zilarning yuragi, jigari va go'shtidan, kindigi hamda po'sti ostidan, xullasi jamiki a'zolaridan topishadi. Qaysi haqiqatligi no'ma'lum.<sup>2</sup>

Aynan yada toshiga egalik qilish uchun ham turkiy xalqlar o'rtasida urushlar kelib chiqqan. Aytishlaricha, G'ar ibn Munsik ibn Yofas alayhissalom uning bobosidan qolgan yomg'ir toshi ustida amakisi Turkxon bilan nizo qilgan. Inchunun shunday bo'ldiki, Yofas alayhissalom vafotidan keyin tosh Munsik qo'lga tushdi. Munsikdan olifta va man-man Bayg'ur degan o'g'li bor ediki, hozirgi turkmanlar o'z shajaralarini shu Bayg'ur ibn G'arga bog'laydilar. Turk lashkarlari qo'lida halok bo'ldi. Chunki G'ardan yomg'ir toshini talab qilganda G'ar uzr so'rab yomg'ir toshini bermagan, o'rniga boshqa bir yumaloq toshni aldash uchun yasab jo'natgan. G'arning aldagani ma'lum bo'lgandan keyin Turk lashkar to'plab o'rtada urush bo'ldi. Bayg'ur o'ldirildi.<sup>3</sup>

Rashididinning xabar berishicha, Chjamuxa boshchiligidagi qabilalar birlashmasi Chingizxonga qarshi jang qilganda (1201 y.), nayman jodugarlari bo'ron chorlaydilar, biroq uning harakat yo'nalishini to'g'ri hisob – kitob qila olmaydilar, oqibatda bo'ron ularning o'zlari ustiga bostirib keladi, bu esa Chingizxonning g'alabasiga ko'mak beradi<sup>4</sup>

Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida esa quyidagi misolni keltiriladi Va Jeta cheriki ko'rdilarkim, bu cherik bila urusha olmaslar, yada toshi bila hiyla va makr qildilar. Nazm:

Yo'q erdi Jeta eliga tobi jang,  
Yada toshi bila qildilar revu rang

Yada toshi bila soldilar ul guruh  
Jahon ichra el birla yang'ur sutuh.

Bulut bo'ldi paydo va qo'bti afg'on  
To'la bo'ldi ra'd unidin jahon.

<sup>2</sup> Mirzo Ulug'bek, To'rt ulus tarixi, 35-b.

<sup>3</sup> O'sha asar 38-b

<sup>4</sup> L.N.Gumilev, Qadimgi turklar, 95-b



Bovujud ulkim, javzo mavsumi erdi, ancha yang'ur to'kdikim, olami to'la suv bo'ldi va andoq balchiq bo'ldikim, ot yeridin tebrana olmay va otliqu yayoqqa majoli harakat yo'q erdi.<sup>5</sup> Yuqorida Amir Temur va Ilyosxo'ja o'rtasida 1365 yil 22 may kuni sodir bo'lgan "Loy jangi" nomi bilan tarixga kirgan jang tasvirlangan. Unda mo'g'ullar g'alabaga ko'zi yetmagach hiyla yo'li bilan yo'mg'ir chaqirib g'alabaga erishadi.

Yada toshidan nafaqat qadimgi turklar balki, keyinchalik islomni qabul qilgan turkiy musulmon hukmdorlar ham kezi kelganda foydalanishgan.

Jumladan, Xorazmshoh Jaloliddin Manguberding minshiysi bo'lgan Shahobiddin Muhammad an Nasaviy o'zining "Siyrat as-sulton Jalol ad-din Mengburni" asarida voqeaga o'z ko'zi bilan guvoh bo'lgan insonlar xotirasini o'z kitobiga kiritib o'tadi. Qo'shin Valashjird (hozirgi Faryob sh.Eron) ga yetganda odamlar kun issiqligi va yomg'ir yog'mayotganligidan noliy boshladilar. Buning ustiga pashshalar odamlar va hayvonlarni chaqib qiynadilar. Shuning uchun ular bu yerdagi toshlar yordamida yomg'ir yog'dirishga qaror qildilar. Dastlab biz yomg'ir yog'diruvchi toshlar borligiga, uning yomg'ir yog'dirishga ham ishonmadik. Lekin ularning yomg'ir yog'dirish uchun harakatlari taqdir sharofati tufayli amalga oshganigabir necha bor guvoh bo'ldik. Ehtimol, bu bir hiyla yoki afsundir. Ammo bbu afsun natijasidagi ishlar haqiqat edi. Uni ko'rgan odamlar hayratdan yoqa ushlar edilar.<sup>6</sup> Yuqoridagi voqea qahramoni aynan sulton Jaloliddin Manguberding shaxsan o'zi hisoblanadi. Sulton yomg'ir yog'diruvchi toshlarni o'zi harakatga keltirgan. Yomg'ir shu darajada ko'p yoqqanki, hatto sulton chodiriga borishning iloji bo'lmagan, yomg'ir odamlarning joniga tegib ketganligi, hattoki afsuslanishganligi qayd etilgan. Voqea guvohi bo'lgan Doya xotun sultonga qarab "Siz haqiqatdan ham xudovandi odamsiz, ammo yomg'ir yog'dirishda mohir emaskansiz", - deganda sulton unga qarata " toshlar vositasida yomg'ir yog'dirish sen o'ylaganchalik osonmas, bu ish insondan astoydil harakat va ishtiyoq talab etadi. Albatta, meni ishtiyoqim va harakatimni qo'l ostimdagilar bilan tenglashtirib bo'lmaydi, ularnikiga qaraganda meni yuksakroq"- degan ekan.

Yada toshlari haqiqatdan mavjud bu afsona bo'lganda ming yillar davomida xalqlar foydalanib kelishganligi to'grisidagi voqea-hodisa guvohlari ko'rsatmalri turli adabiyotlarda turlicha talqin qilinar edi.. Hattoki hozirgi kunda ilm-fan rivoj topib borar ekan buning iloji topildi, olimlar sun'iy ravishda yomg'irli bulutlarni hosil qilishni ilmiy jihatdan isbotlab bo'lishdi. Lekin nima bo'lganda ham bizning ajdodlarimiz va qo'shni xalqlar tarixida yada toshi vositasida yomg'ir yo'gdirilganligi to'grisidagi voqealar aniq ma'lumotlar, guvohlar hikoyalari orqali bizgacha yetib kelgan ekan buning siri yaqin kelajakda ochilishiga ishonaman.

## Foydalangan adabiyotlar

<sup>5</sup> Sharafiddin Ali YAzdiy, "Zafarnoma", 38-b.

<sup>6</sup> Shahobiddin Muhammad an Nasaviy, "Siyrat as-sulton Jalol ad-din Mengburni", 284-b

1. L.N.Gumilev, Qadimgi turklar. Fan nashriyoti, Toshkent, 2007 y
2. Эрдэнэболд Лхагвасурэн, Традиционные верования ойрат-монголов (конец XIX – начало XX в) Улан Уде. 2005
3. Mirzo Ulug’bek, To’rt ulus tarixi, Cho’lpon , Toshkent, 1994 y
4. Sharafiddin Ali YAzdiy, “Zafarnoma” Sharq , Toshkent , 1997 y
5. Ahmet Öğreten. Turk kulturinde “Yada tasi” ve XVIII yuz yil sonu Osmanli-Rus savasinda kullanimasi.
6. Shahobiddin Muhammad an Nasaviy, “Siyrat as-sulton Jalol ad-din Mengburni”, O’zbekiston, Toshkent 2006 y
7. Hakim Sattoriy, Hazrat Sohibqiron, Toshkent 2005 y
8. Mirzo Muhammad Haydar, Tarixi Rashidiy, O’zbekiston , Toshkent, 2011 y.